Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdami o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIASAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

“Boshlang'ich ta'lim” kafedrası assistenti

ORCID: 0009-0006-2734-8981

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida mediasavodxonlikning o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Mediasavodxonlik raqamli jamiyat sharoitida shaxsning axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli manbalarni ajrata bilish hamda muloqot jarayonida madaniy va axloqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada mediasavodxonlik orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, ularni axborot makonida mas'uliyatli va axloqiy faoliyat yuritishga tayyorlash masalalari yoritiladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etishda interaktiv metodlar, media loyihalar, refleksiv mashg'ulotlar va tanqidiy fikrlashga asoslangan topshiriqlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida mediasavodxonlik elementlarini pedagogik muloqot madaniyatiga integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular talabalarda pedagogik etika, raqamli madaniyat va kommunikativ mahoratni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqola ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot madaniyati, mediasavodxonlik, raqamli madaniyat, kommunikativ kompetensiya, axborot etikasi, ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, raqamli kommunikatsiya, refleksiv yondashuv, media ta'lim, tanqidiy fikrlash, pedagogik etika, innovatsion o'qitish metodlari, raqamli pedagogika, ijtimoiy media madaniyati.

Abstract: This article examines the theoretical, methodological, and practical significance of media literacy in shaping students' pedagogical communication culture. In the context of digital society, media literacy is recognized as an essential tool for developing critical thinking, information analysis skills, and ethical communication practices among future educators. The study highlights the role of media education in enhancing students' communicative competence, digital ethics, and social responsibility. It also evaluates the effectiveness of interactive learning strategies, media projects, reflective exercises, and critical thinking-based tasks in fostering professional communication skills. Furthermore, the article emphasizes the importance of utilizing digital and social media tools to cultivate respect, tolerance, and intercultural understanding within educational communication. Based on the research findings, methodological recommendations are proposed for integrating media literacy components into teacher-training curricula, thereby contributing to the development of digital culture and ethically grounded communication. The results confirm that media literacy represents a fundamental dimension of the professional culture of modern educators and plays a key role in developing pedagogical communication culture among students.

Key words: Pedagogical communication culture, media literacy, digital culture, communicative competence, information ethics, educational technology, interactive learning methods, digital pedagogy, reflective approach, critical thinking, media education, social media communication, professional ethics, innovative teaching strategies, cross-cultural communication.



Аннотация: В статье рассматривается значение медиаобразования в процессе формирования культуры педагогического общения у студентов. Анализируются теоретические, методические и практические аспекты внедрения медиаграмотности в образовательный процесс. Медиаграмотность в условиях цифрового общества является важным инструментом развития критического мышления, способности анализировать и оценивать информацию, а также соблюдения норм этики и культуры общения. Автор акцентирует внимание на влиянии медиаобразовательных компетенций на формирование коммуникативной культуры будущего педагога, его профессиональной идентичности и цифровой ответственности. В работе изучаются возможности применения интерактивных методов обучения, медиапроектов, медиатренингов и рефлексивных подходов для повышения эффективности педагогического общения. Представлены методические рекомендации по интеграции медиаобразования в образовательный процесс вуза, что способствует развитию цифровой этики, толерантности и культуры взаимопонимания. Результаты исследования подтверждают, что медиаграмотность является неотъемлемой частью профессиональной культуры современного педагога и важным фактором развития культуры педагогического общения.

Ключевые слова: культура педагогического общения, медиаобразование, медиаграмотность, цифровая культура, информационная этика, педагогическая коммуникация, интерактивные методы обучения, цифровая педагогика, критическое мышление, рефлексивный подход, медиаобразовательные технологии, профессиональная компетентность, этика общения, инновационные методы преподавания, культура социальных сетей.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Axborot oqimi keskin ortib borayotgan, raqamli kommunikatsiya hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan bugungi davrda pedagog shaxsining mediasavodxonligi nafaqat o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi, balki uning kasbiy madaniyatini ham belgilab beradi. Shu bois, talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda mediasavodxonlikni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning ob'ekti – talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – ushbu jarayonda mediasavodxonlikning o'rni, ta'siri va metodik imkoniyatlari.

Tadqiqotning maqsadi – talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda mediasavodxonlikni samarali qo'llash mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslash.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mediasavodxonlik va pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslarini o'rganish;
2. Talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda media vositalarining ta'sirini tahlil qilish;
3. Pedagogik jarayonga mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish yo'llarini aniqlash;
4. Amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va refleksiv yondashuv asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Raqamli asr sharoitida ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalari va onlayn kommunikatsiya vositalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Talabalar endilikda bilim olish, muloqot qilish va fikr almashish jarayonlarini nafaqat an'anaviy auditoriya, balki raqamli muhitda ham amalga oshirmoqda. Shu sababli, talabalarining pedagogik muloqot madaniyatini raqamli muhitda shakllantirish masalasi pedagogik fanlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi.

XXI-asrda axborot oqimining kengayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga chuqur kirib kelishi natijasida ta'lim jarayoni ham tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda talabalarining kommunikativ faolligi, fikrlash madaniyati va ijtimoiy ong darajasi ko'p jihatdan ular ishtirok etayotgan media muhiti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, zamonaviy pedagogik ta'limda mediasavodxonlikni shakllantirish nafaqat texnik ko'nikma, balki shaxsning axloqiy, ma'naviy va kommunikativ madaniyatini rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

Pedagogik muloqot madaniyati esa o'qituvchi va talaba o'rtasidagi samarali, ijobiy, insonparvarlik ruhida o'zaro aloqalarni shakllantirish jarayonidir. Bunday madaniyatning rivojlanishi o'zaro hurmat, empatiya, etik normalarga rioya qilish, shuningdek, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalanishni talab etadi. Aynan shu jarayonda mediasavodxonlik talabalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, axborot manbalarini to'g'ri baholash, soxta ma'lumotlardan himoyalanih hamda ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli muloqot yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.^[1]

Shunday ekan, talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikni o'qitish metodikasini ishlab chiqish, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlash va amaliy yondashuvlarini takomillashtirish bugungi kunda pedagogik fanlarning dolzarb muammolaridan biridir. Tadqiqotda aynan mediasavodxonlik fani orqali talabalarining pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari, shuningdek, bu jarayonda interaktiv metodlarning o'rni va samaradorligi tahlil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik muloqot madaniyati va mediasavodxonlik masalalariga bag'ishlangan adabiyotlarning xalqaro va mahalliy manbalari ikki asosiy oqimda rivojlanganligi kuzatiladi:

- *bir tomondan* – mediasavodxonlik nazariyasi va raqamli medialarning individual-ijtimoiy ta'siri;
- *ikkinchi tomondan* – pedagogik amaliyot va ta'lim texnologiyalari orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar.

Xorijiy adabiyotlarda mediasavodxonlikning nazariy asoslari aniq bayon etilgan. Masalan, media va kommunikatsiya nazariyalari (mediakhokimiyat, axborot maydonining strukturalari) haqida klassik qarashlar, shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan mediasavodxonlik ta'limi konsepsiyalari taklif qilingan. Xalqaro tadqiqotchilar mediasavodxonlikni nafaqat texnik ko'nikma, balki tanqidiy tafakkur, axborot-etika va raqamli fuqarolik (digital citizenship) bilan chambarchas bog'liq deb ko'rsatadilar. Bundan tashqari, interaktiv metodlar, media-loyihalar va refleksiv mashg'ulotlarning o'quvchi-yoshlarning kommunikativ mahoratini rivojlantirishdagi samaradorligi bo'yicha empirik dalillar keltirilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ijtimoiy media platformalarining pedagogik imkoniyatlari va xavf-xatarlari ham tahlil qilingan.

Mahalliy (O'zbekiston va Markaziy Osiyo) tadqiqotlarda esa pedagogik muloqot madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etish va talabalar orasida raqamli madaniyatni rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Ushbu ishlarda ko'proq ta'lim jarayonlarida texnologik vositalarning qo'llanishi, o'qituvchilarning media-kompetensiyalarga muhtojligi va universitetlarda mediasavodxonlik modullarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar taklif qilingan. Mahalliy tadqiqotlar ko'p hollarda amaliy yo'nalishda – darsliklar, metodik qo'llanmalar, seminarlarga qaratilgan va kontekstga mos (madaniy hamda ta'lim tizimining xususiyatlarini hisobga olgan) yechimlar taklif etadi.

Ammo adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim muhim bo'shliqlar mavjud:

1. Ko'p xalqaro tadqiqotlar umumiy nazariy va empirik natijalarni taqdim etsada, mahalliy kontekstga – o'zbek tilidagi o'quv dasturlari, milliy madaniy normativlar va yuqori ta'limning o'ziga xos tashkil etilishiga moslashtirilgan metodik yechimlar kam.
2. Pedagogik muloqot madaniyatini va mediasavodxonlikni integratsiyalashgan holda baholash uchun standartlashtirilgan baholash vositalari va mezonlar cheklangan.
3. Refleksiv treninglar, media-loyihalar va ijtimoiy media amaliyotining talabalar muloqot madaniyatiga qanday aniq ta'sir ko'rsatishi borasida ko'proq eksperimental va uzoq muddatli tadqiqotlar talab etiladi.

Muallif olib chiqayotgan masalaning o'ziga xosligi shu bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Xususan, mazkur maqola:

- mediasavodxonlik komponentlarini pedagogik muloqot madaniyatiga integratsiyalashgan tarzda yondoshadi (nazariy va amaliy jihatlarini birlashtiradi);
- kontekstga mos metodik paket – interaktiv topshiriqlar, media-loyihalar, refleksiv treninglar va ularni baholash uchun aniq mezonlarni taklif qiladi;
- amaliy eksperimental / metodologik basisga tayangan holda O'zbekiston oliy ta'lim muhitida mediasavodxonlikni tatbiq etishning samaradorligini baholashni maqsad qilgan (ya'ni nafaqat tavsiyalar, balki ularning amaliy natijasi ham o'rganiladi).

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar bazasidan kelib chiqib, maqola nazariy bilimlarni mahalliy pedagogik amaliyot bilan bog'lash, baholash mexanizmlari va konkret metodik yechimlarni taklif etish orqali mavzuga konstruktiv hissa qo'shadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni samarali integratsiya qilish va talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini barqaror shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlariga xos bo'lgan bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy maqsad – talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning o'rni va ta'sirini aniqlash, uning samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning nazariy asosini tizimli tahlil va qiyosiy-taqqoslash metodlari tashkil etdi. Avvalo, xorijiy va mahalliy olimlarning mediasavodxonlik, kommunikativ kompetensiya, raqamli madaniyat hamda pedagogik muloqot bo'yicha ishlari tahlil qilinib, ularning yondashuvlari o'zaro qiyoslandi. Bu orqali mavjud ilmiy qarashlardagi umumiylik va tafovutlar aniqlanib, maqolada ilgari surilgan g'oyaning yangiligi asoslab berildi.



Bundan tashqari, tizimli yondashuv orqali pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni bir butun tizim sifatida – shaxs, axborot muhiti, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot hamda texnologik vositalar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Ushbu yondashuv natijasida mediasavodxonlikning pedagogik muloqotga ta'siri nafaqat axborot olish darajasida, balki axloqiy va kommunikativ madaniyatni shakllantirish omili sifatida baholandi.^[2]

Tahliliy metod yordamida ilmiy manbalardagi konsepsiyalar, terminologik yondashuvlar hamda pedagogik amaliyotda mediasavodxonlikni joriy etish bo'yicha mavjud tajribalar o'rganildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari amaliyotidan olingan kuzatuv materiallari asosida talabalar muloqot madaniyati va media faoliyatining o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi.

Empirik yondashuv sifatida esa so'rovnoma va suhbat shaklidagi kichik hajmli diagnostik kuzatuvlar o'tkazildi. Bu jarayonda talabalar mediasavodxonlik darajasi, axborot manbalariga nisbatan tanqidiy fikrlashi hamda raqamli muloqotdagi etik xulq-atvorlari baholandi. Olingan ma'lumotlar nazariy tahlillar bilan qiyoslab, umumlashtirildi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi orqali mediasavodxonlikni talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi kompleks pedagogik omil sifatida ko'rib chiqish imkoniyati yaratildi. Mazkur metodik yondashuv maqolaning ilmiy xulosalarini asoslashda, shuningdek, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ishonchli empirik va nazariy tayanch bo'lib xizmat qildi.

Pedagogik muloqot madaniyati tushunchasi va uning ahamiyati

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi. Muloqot madaniyati o'z ichiga kommunikativ kompetensiya, etik va axloqiy madaniyat, emotsional barqarorlik hamda empatiyani oladi.

Pedagogik muloqot madaniyati – bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida namoyon bo'ladigan, axloqiy, ma'naviy va kommunikativ qadriyatlarga asoslangan muloqot tizimidir.^[3] U nafaqat o'qituvchining so'z boyligi yoki nutq madaniyatini, balki tinglash, tushunish, empatiya, hurmat va hamkorlik ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Pedagogik muloqotning madaniyati ta'lim-tarbiya jarayonining markazida turadi, chunki u bilim berish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijobiy psixologik muhitni yaratadi. Bu esa o'z navbatida o'quv motivatsiyasini oshiradi, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi va o'qituvchining ta'sir kuchini orttiradi.

Pedagogik muloqot madaniyati quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. **Kommunikativ kompetensiya** – fikrni aniq, lo'nda va madaniyatli ifoda etish, o'zaro muloqotda samarali aloqa o'rnatish qobiliyati.
2. **Axloqiy madaniyat** – muloqotda odob, muomala, hurmat va pedagogik etikaning namoyon bo'lishi.
3. **Emotsional madaniyat** – his-tuyg'ularni boshqarish, empatiya, bag'rikenglik va ijobiy ruhiy muhit yaratish.
4. **Refleksiv yondashuv** – o'z nutqiy va kommunikativ xatti-harakatlarini tahlil qilish, o'zini baholay olish qobiliyati.^[4]

Shunday qilib, pedagogik muloqot madaniyati – bu nafaqat nutq madaniyati, balki pedagogik mahoratning, shaxsiy fazilatlarining va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligidir. U o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy obrazini shakllantiradi hamda ta'lim jarayonining insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati va ta'siri ko'p yo'nalishda o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, mediasavodxonlik talabalarining kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda nafaqat texnik ko'nikma, balki axloqiy, madaniy va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Dastlabki bosqichda talabalarining mediasavodxonlik darajasi aniqlanib, ularning aksariyati media vositalaridan faol foydalanishiga qaramay, tanqidiy tahlil, manba ishonchligi va axborot etikasi masalalarida yetarli tayyorgarlikka ega emasligi kuzatildi. Shu sababli, o'quv jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish zarurati yuzaga chiqdi.

Eksperimental kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar (media loyihalar, tahliliy taqdimotlar, refleksiv mashg'ulotlar) va raqamli platformalar (ta'limiy bloglar, onlayn muhokamalar, ijtimoiy tarmoqlarda akademik muloqot)ni qo'llash talabalar faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.^[5] Talabalarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, muloqotda axloqiy me'yorlarga amal qilish hamda o'z fikrini raqamli madaniyat doirasida ifodalash ko'nikmalari shakllandi.



Tadqiqot natijalarini tahlil qilish davomida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

1. Mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatining asosiy komponenti – kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladi.
2. Refleksiv yondashuv orqali talabalar o'z muloqot uslubi va media faoliyatini baholashni, o'z xatolarini tahlil qilishni o'rgandilar.
3. Axborot etikasi elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish raqamli muhitda mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga yordam berdi.
4. Interaktiv mashg'ulotlar va media amaliyotlari orqali talabalar o'zaro hurmat, tinglash madaniyati va fikrlar xilma-xilligiga bag'rikenglikni o'rgandilar.^[6]

Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, mediasavodxonlik komponentlarini o'qitish jarayoniga maqsadli integratsiya qilgan guruh talabalarida kommunikativ kompetensiya darajasi 25–30 foizga oshgan. Bu esa mediasavodxonlikning nafaqat texnologik, balki pedagogik muloqot samaradorligini oshiruvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mediasavodxonlik shaxsning axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish, baholash va madaniyatli tarzda yetkazish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida pedagogik muloqotning asosiy jihatlari – tinglash, tushunish, fikr almashish va etik munosabat madaniyatini mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ta'lim jarayoniga mediasavodxonlik elementlarini kiritish:

- talabalarda kommunikativ kompetensiyani sezilarli darajada oshiradi;
- ularning tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tahlil qilish va baholash qobiliyatini kuchaytiradi;
- raqamli madaniyat va axborot etikasi me'yorlariga rioya qilishni o'rgatadi;
- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni samaraliroq va ochiq muhitda tashkil etishga yordam beradi.^[7]

Natijalar shuni tasdiqladiki, mediasavodxonlikni rivojlantirish pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda nafaqat qo'shimcha vosita, balki integrallashgan pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lishi zarur.

Mediasavodxonlikning pedagogik jarayondagi roli

Mediasavodxonlik axborotni yaratish, tahlil qilish, baholash va madaniyatli iste'mol qilish kompetensiyalarini shakllantiruvchi fan sifatida ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Bu fanning asosiy maqsadi – talabalarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, axborot etikasi va kommunikativ madaniyatni shakllantirishdir.

Mediasavodxonlik – bu shaxsning axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va undan mas'uliyatli foydalanish qobiliyatidir. U axborot texnologiyalari davrida nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik kategoriya sifatida e'tirof etiladi.^[8]

Bugungi ta'lim tizimida mediasavodxonlikning o'rni quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. **Axborot tanqidiyligi** – talabalar ommaviy axborot manbalarini tahlil qilib, ishonchli ma'lumotni soxta xabarlardan ajrata oladi.
2. **Axborot etikasi** – raqamli muhitda muloqot madaniyatiga, shaxsiy huquq va axborot xavfsizligiga rioya qilishni o'rgatadi.
3. **Ijodiy tafakkur** – talabalarda media vositalari orqali yangi g'oyalarni ifoda etish, kontent yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
4. **Ijtimoiy mas'uliyat** – axborotdan foydalanishda milliy qadriyatlar, madaniyat va axloqiy me'yorlarga amal qilishni targ'ib etadi.^[9]

Pedagogik jarayonda mediasavodxonlikning ahamiyati shundaki, u o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikatsiyani zamonaviy texnologiyalar orqali yangi bosqichga olib chiqadi. O'qituvchi dars jarayonida videomateriallar, infografikalar, onlayn testlar va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'limiy platformalardan foydalanish orqali talabalarning faolligini oshiradi. Shuningdek, mediasavodxonlik talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotga nisbatan madaniy yondashuv, virtual muloqot etikasi va raqamli madaniyatni shakllantiradi. Bu esa ularni kelajakda nafaqat media iste'molchisi, balki axborot yaratishda faol ishtirok etuvchi mas'uliyatli fuqaro sifatida tarbiyalaydi.



Pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun mediasavodxonlik fanini integratsion asosda o'qitish, raqamli muhitda muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi topshiriqlarni joriy etish, refleksiv yondashuvni qo'llash va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish zarur.

Pedagogik shart-sharoitlar – bu ta'lim jarayonida shaxsning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini samarali shakllantirishga imkon beruvchi tashkiliy, psixologik, didaktik va ijtimoiy omillar majmuasidir. Ular ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari hamda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.^[10]

Talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlar zarur:

1. **Psixologik qulay muhitni yaratish.** Talabalar o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, muloqotda ochiq va ishonchli muhit mavjud bo'lishi zarur. Bu ularning o'zaro hurmat, tinglash, bahs-munozara madaniyatini shakllantiradi.
2. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.** Raqamli platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ta'lim resurslari o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muloqotni interaktiv asosda olib borish imkonini beradi.
3. **Motivatsion yondashuvni kuchaytirish.** Talabalarning o'z ustida ishlash, media orqali yangi ma'lumotlarni izlash va tahlil qilishga bo'lgan ichki ehtiyojini uyg'otish ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.
4. **Integrativ yondashuvni ta'minlash.** Mediasavodxonlik, kommunikativ madaniyat, axloqiy tarbiya va psixologik kompetensiyalarni bir butun tizim sifatida uyg'unlashtirish muloqot madaniyatining kompleks rivojlanishiga olib keladi.
5. **Refleksiya va o'z-o'zini baholash imkonini yaratish.** Talabalarga o'z muloqot faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va to'g'rilash imkonini beruvchi tahliliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi.^[11]

Metodik yondashuvlar

Pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda metodik yondashuvlar tizimi o'qituvchi faoliyatining asosiy strategik yo'nalishini belgilaydi. Ular orasida eng samarali turlari quyidagilardir:

1. **Kommunikativ yondashuv.** Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida muloqotni asosiy pedagogik vosita sifatida ko'radi. Talabalar o'z fikrini ifoda etish, bahsda ishtirok etish, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish orqali bilimni faol egallaydilar.
2. **Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** O'quvchi yoki talaba o'quv jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi esa yo'l-yo'riq beruvchi va motivator roliga bo'ladi. Bu yondashuvda loyiha ishlari, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar samarali natija beradi.
3. **Axborot-tahliliy yondashuv.** Talabalarga media manbalardan olingan axborotni tahlil qilish, uning ishonchiligi tekshirish, manipulyatsiyalarni anglash ko'nikmalari o'rgatiladi. Bu yondashuv mediasavodxonlik kompetensiyasini shakllantirishda muhimdir.
4. **Madaniy yondashuv.** Har qanday pedagogik muloqot milliy qadriyatlar, madaniyat va odob-axloq normalariga asoslanadi. Shu bois, muloqot jarayonida milliy an'analarni, ma'naviy merosni va milliy o'zlikni tarbiyalash ustuvor ahamiyatga ega.
5. **Integrativ va tizimli yondashuv.** Mediasavodxonlikni boshqa fanlar bilan bog'lash (psixologiya, tilshunoslik, axborot texnologiyalari va boshqalar) orqali muloqot madaniyati kompleks rivojlantiriladi.^[12]

Metodik ta'minot vositalari sifatida quyidagi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- multimediya taqdimotlar va interaktiv darslar;
- ijtimoiy tarmoqlarda ta'limiy guruhlar va forumlar;
- refleksiv kundaliklar va onlayn testlar;
- loyiha ishlari, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar;
- media materiallar asosida tahliliy topshiriqlar.

Mazkur yondashuvlar pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda talabalarni axborot tanqidiyligi, kommunikativ savodxonlik, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy faollikka yo'naltiradi.^[13]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikning ta'lim jarayoniga samarali integratsiyasi talabalarda nafaqat kommunikativ madaniyatni, balki axborot madaniyati, raqamli mas'uliyat va kasbiy etika tamoyillarini ham shakllantiradi. Shunday ekan, mediasavodxonlikni rivojlantirish bugungi globallashuv davrida pedagogik muloqot madaniyatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari mediasavodxonlikni pedagogik muloqot madaniyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Talabalarda bu ikki jihat uyg'un rivojlanganda, ularning raqamli axborot makonida madaniyatli, axloqiy va samarali muloqot olib borish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Shu bois, maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta'lim tizimida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. U nafaqat texnik bilimlarni, balki axborotga nisbatan madaniy, axloqiy va tanqidiy yondashuvni ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasidir. U axborotni tanqidiy tahlil qilish, axborot etikasi, raqamli madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat kabi kompetensiyalarni shakllantirish orqali talabalarning kommunikativ va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mediasavodxonlikni o'qitishda interaktiv metodlar – muammoli vaziyatlar tahlili, onlayn muhokamalar, ijtimoiy tarmoqlardagi amaliy topshiriqlar va refleksiv treninglar – talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi hamda ularning muloqot madaniyatini mustahkamlaydi. Pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishning asosiy natijasi – bu shaxsning o'z fikrini madaniyatli tarzda ifoda etish, turli nuqtai nazarlarga nisbatan tolerant yondashish va pedagogik etikani amaliyotda namoyon eta olish qobiliyatidir.

Shunday qilib, mediasavodxonlikni talabalarning ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, ularni axborot maydonida mas'uliyatli, madaniyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish, metodik tavsiyalarni kengaytirish hamda o'qituvchi tayyorlov tizimiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev, M. (2021). Pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
2. Xoliqova, N. (2020). Pedagogik muloqot va kommunikativ kompetensiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Qodirova, D. (2022). Talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirishda mediasavodxonlikning o'rni. Oliy ta'lim muammolari jurnali, №3, 56–62.
4. O'rinboyeva, G. (2019). Pedagogik muloqot psixologiyasi. Andijon: AndDU nashriyoti.
5. Raximova, Z. (2024). Mediasavodxonlik va raqamli madaniyat asosida pedagogik muloqotni rivojlantirish yondashuvlari. Ta'lim va innovatsiya jurnali, №2, 44–51.
6. To'xtayeva, M. (2021). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limda: interaktiv metodlar va mediasavodxonlik. Toshkent: Innovatsion pedagogika markazi.
7. Tursunov, A. (2020). Oliy ta'limda raqamli pedagogika va kommunikatsiya madaniyati. Pedagogik innovatsiyalar, №4, 72–79.
8. Abdullayeva, S. (2023). Talabalarda refleksiv kompetensiyani rivojlantirishda mediasavodxonlik vositasi sifatida. O'zMU axborotnomasi, №1, 35–42.
9. Karimova, M. (2018). Pedagogik muloqotning ijtimoiy-psixologik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
10. Otayeva, L. (2022). Axborot etikasi va pedagogik muloqot madaniyati: nazariy yondashuvlar. Ta'lim va fan jurnali, №5, 89–95.
11. Buckingham, D. (2003). Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press.
12. Potter, W. J. (2019). Media Literacy. 9th Edition. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications.
13. Kellner, D., & Share, J. (2007). Critical Media Literacy, Democracy, and the Reconstruction of Education. In Media Literacy: A Reader. New York: Peter Lang.
14. Livingstone, S. (2004). Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies. Communication Review, 7(1), 3–14.
15. Hobbs, R. (2010). Digital and Media Literacy: A Plan of Action. Washington, DC: The Aspen Institute.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.